JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH
Volume 4, Issue 6, July- August 2026 Online ISSN: 3030-3508
https://spaceknowladge.com

EKOLOGIK BARQARORLIK VA IJTIMOIY INKLYUZIVLIK ASOSIDA QASHQADARYO VILOYATIDA URBANIZATSIYANI BOSHQARISH

Ochilov Rahimjon Zafar o‘g‘li
Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti bosh mutaxassisi

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:
Received:20.07.2026
Revised: 21.07.2026
Accepted:22.07.2026

KALIT SO’ZLAR:
urbanizatsiya boshqaruvi, ekologik barqarorlik, ijtimoiy inklyuzivlik, ekologik adolat, Qashqadaryo viloyati.

ANNOTATSIYA:

Maqolada Qashqadaryo viloyatidagi tezkor urbanizatsiya sharoitida shahar boshqaruvini ekologik barqarorlik va ijtimoiy tenglik asosida takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Aholi va shaharlar o‘sishi tufayli yuzaga kelayotgan tuproq degradatsiyasi, suv tanqisligi hamda havo ifloslanishi kabi muammolar ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda ekologik adolat (environmental justice), resurs tejamkorligi va infratuzilmani rivojlantirish orqali urbanizatsiyani samarali boshqarish bo‘yicha amaliy takliflar berilgan..

Urbanizatsiya 21-asrning eng muhim global jarayonlaridan biridir va ko‘plab mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishining asosiy omilidir. Biroq shunga mos holda, ekologik ta’sir va ijtimoiy nomutanosibliklar ham ortib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2023-yilda chiqargan “World Urbanization Prospects” hisobotiga ko‘ra, 2050-yilga borib dunyo aholisining 68 % shaharlarda yashashi kutilmoqda. Ushbu urbanizatsiya, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarida, barqaror rivojlanish maqsadlariga to‘siq bo‘lishi mumkin.

So‘nggi o‘n yillikda Qashqadaryo viloyatida urbanizatsiya jarayonlari sezilarli darajada jadallashgani kuzatilmoqda. Viloyat aholisi 2015-yilda 2,9 mlndan 2025-yilga 3,6 mlnga yetdi. Bu o‘sishning ijobiy tomonlari bo‘lsa ham *(yangi ish o‘rinlari, infratuzilma rivojlanishi)*, salbiy oqibatlari ham jiddiy, tuproqning 45 % dan ortigi sho‘rlangan, suv manbalari kamaymoqda, cho‘llanish kattalashmoqda, aholining 57 % qishloqlarda yashasa ham, shaharlar gorizontal kengayib, qishloq xo‘jaligi yerlarini qisqartirmoqda.

Shuningdek, urbanizatsiya imkoniyatlaridan hamma birdek foydalana olmayapti, shahar atrofidagi qishloq aholisi infratuzilmaga to‘liq ulanmagan va ijtimoiy xizmatlardan chetda qolmoqda, natijada ijtimoiy tengsizlik darajasi ortib bormoqda.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Qashqadaryo viloyatda urbanizatsiya jarayonlarini “ekologik barqarorlik” *(environmental sustainability)* va “ijtimoiy inklyuzivlik” *(social inclusivity)* tamoyillarini asosga olgan holda tahlil qilish va isloh etishning yo‘nalishlari ishlab chiqishdir. Ekologik adolatlilik *(ecological justice)* tamoyilidan chiqib, viloyat urbanizatsiyasida yer, suv va hava resurslarini samarali boshqarish, ayni paytda barcha aholining daromad va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini tenglashtirish lozim degan xulosaga kelamiz.

Urbanizatsiyaning atrof-muhitga salbiy ta’sirlari

Tuproq degradatsiyasi va sho‘rlanish muammosi. Qashqadaryo viloyati asosan issiq va quruq iqlim zonasida joylashgani bo‘lib, tuproq sho‘rlanishi avvaldan mavjud muammo sanaladi. Biroq so‘nggi yillarda ushbu jarayonning keskin jadallashuvi viloyat qishloq xo‘jaligi salohiyatiga xavf solmoqda. O‘zbekiston davlat tuproq ekspertizasi markazi 2020-yil ma’lumotiga ko‘ra, Qashqadaryo viloyatida sug‘oriladigan maydonlarning 45,2 % *(232 309 gektar)* sho‘rlangan holatda bo‘lib, ularning 9 600 gektari kuchli sho‘rlangan. Viloyatda yer degradatsiyasini keltirib chiqaruvchi asosiy omillari quyidagiladan iborat.

Sug‘orish tizimidagi kamchiliklar. Viloyatda suv tejovchi texnologiyalarning yetarlicha joriy etilmagani va suvning ochiq kanallar orqali tashilishi yuqori yo‘qotishlarga olib kelmoqda. Qolaversa, ekin yerlarining geoinformatsion tizimlarga (*GIS*) to‘liq integratsiya qilinmagani va sug'orish obyektlarining zaruriy quvvatdagi transformator hamda texnik uskunalar bilan ta'minlanmagani samaradorlikni cheklamoqda.

Iqlim o‘zgarishi. Qashqadaryo viloyatida yoz oylarida haroratning ko‘tarilishi, qishki yog‘inlar miqdorining kamayishi va qurg‘oqchilik davrlarining uzayishi tuproq sho‘rlanishini yanada tezlashtirmoqda. Masalan, 2020-yilgi qurg‘oqchilik mavsumida suv resurslari hajmi me’yordagidan 30 %ga kamaygani kuzatilgan.

Urbanizatsiya va yer fondining transformatsiyasi. Shaharlarning kengayishi hamda ko‘p qavatli turar joylar qurilishi natijasida unumdor qishloq xo‘jaligi yerlari qurilish fondi toifasiga o‘tkazilmoqda. Bu esa viloyatning agrar salohiyatini sezilarli darajada cheklamoqda. Xususan, 2015-2024 yillarda Qashqadaryodagi sug‘oriladigan yerlar maydoni 500 ming gektardan 417 ming gektargacha qisqardi.

Suv resurslari tanqisligi va infratuzilmaning hududiy nomutanosibligi

Suv boshqaruvi viloyatning eng dolzarb ekologik muammosidir. Qashqadaryo viloyati ikkita asosiy suv manbaiga tayanadi. Amudaryo daryosi *(Qarshi magistral kanali orqali)* va Qashqadaryo daryosi. 2022-2024 yillarda bu daryolardan olinadigan suv hajmi normadan 20-30 % kam bo‘lgan. Suv tanqisligining oqibatlari.

Ichimlik suvi infratuzilmasidagi tengsizlik. Viloyat bo‘yicha ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasi 70-75% bo‘lishiga qaramay, G‘uzor, Dehqonobod va Kasbi tumanlarida bu ko‘rsatkich 44-45% ni tashkil etadi. Natijada, ushbu hududlar aholisining yarmidan ortig‘i kafolatlangan va zamonaviy suv ta’minotiga ega emas.

Yer osti suv resurslarining kamayishi. Viloyatning tog‘oldi hududlarida gidrogeologik sathning pasayishi sababli quduqlarning qurishi tezlashdi. Masalan, Kitob va Shahrisabz tumanlaridagi tog‘li aholi punktlarida 2020-yildan keyin chuqur va ochiq quduqlarda suv sathi pasayib borayotgani kuzatilmoqda.

Ekologik adolatlilik va institutsional boshqaruv mexanizmlar

Ekologik adolat (Environmental Justice) tamoyiliga ko‘ra, barcha fuqarolar ijtimoiy va iqtisodiy mavqeidan qat’i nazar, ekologik xavflardan teng himoyalanish, tabiiy resurslardan adolatli foydalanish hamda atrof-muhitga oid qarorlarni qabul qilish jarayonida teng ishtirok etish huquqiga ega. Hozirgi kunda Qashqadaryo viloyatida ekologik adolatni ta'minlash borasida bir qator kamchiliklar mavjud:

- Sanoat obyektlari va ekologik zarar taqsimotidagi nomutanosiblik. Muborak va G‘uzor tumanlaridagi sanoat markazlarida atrof-muhit va havo ifloslanishi zararli darajada saqlanmoqda. Bu holat mahalliy aholining salomatligi hamda turmush sifatiga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

- Jamoatchilik institutlari salohiyatining to‘liq safarbar etilmagani. Hokimiyat organlari va aholi o‘rtasidagi muloqotning yetarli emasligi hamda qarorlar qabul qilishdagi yopiqlik fuqarolarning o‘zgarishlarga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini cheklamoqda. Aholi qarorlarni shakllantirish va baholash jarayonlaridan uzilib, faqat majburiyatlarni bajaruvchi tomonga aylanib qolgan.

Barqaror urbanizatsiya islohoti uchun taklif etilgan yo‘nalishlar

Ekologik monitoring va tuproq boshqaruv. Doimiy tuproq monitoringi tizimini yo‘lga qo‘yish. Sug‘oriladigan ekin maydonlarida sho‘rlanish darajasini har 2–3 yilda davriy baholab borish hamda o‘z vaqtida meliorativ choralarni ko‘rish zarur. Ushbu maqsadga erishish uchun “Tuproq tahlili markazi” davlat muassasasining Qashqadaryo viloyati filialini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Suv tejovchi va meliorativ innovatsiyalarni joriy etish. Sho‘rlangan yerlarni reabilitatsiya qilishda innovatsion usullardan (jumladan, bioremediatsiya va seolit mineralidan) keng foydalanish hamda ushbu ilg‘or agrotexnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha fermerlar uchun tizimli o‘quv-seminarlarini tashkil etish lozim.

Ijtimoiy xizmatlarda inklyuzivlik. Chekka hududlarda tibbiyot va ta’lim xizmatlarini raqamlashtirish hamda mobil shaklda yetkazish. Qishloq va tog‘li hududlar aholisini sifati va qulay xizmatlar bilan qamrab olish maqsadida telemeditsina, masofaviy ta’lim platformalari va mobil klinika tizimlarini keng joriy etish zarur.

Ijtimoiy uy-joy dasturlarida manzilli qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish. Kam ta’minlangan va ehtiyojmand oilalar, imkoniyati cheklangan shaxslar hamda ichki migrantlar uchun arzon ipoteka kreditlari va manzilga yo‘naltirilgan subsidiyalar ko‘lamini oshirish lozim.

Jamoatchilik institutlarini kuchaytirish. Inklyuziv boshqaruv va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini joriy etish. Mahalliy ijro organlari va aholi o‘rtasidagi konstruktiv muloqotni

ta'minlash maqsadida "Hududiy boshqaruv kengashlari"ni tuzish hamda muhim qarorlarni aynan ushbu kengashlar muhokamasi orqali qabul qilish amaliyotini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tabiiy resurslar boshqaruvida jamoatchilik va ekspertlar nazoratini kuchaytirish. Yer va suv resurslaridan foydalanish hamda atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatuvchi loyihalarni tasdiqlashda mahalliy jamoatchilikning pozitsiyasini inobatga oluvchi majburiy jamoatchilik ekspertizasi tizimini joriy etish zarur.

Qashqadaryo viloyatda urbanizatsiya jarayonlarini ekologik barqarorlik va ijtimoiy inklyuzivlik asosida boshqarish faqatgina aholining farovonligi uchun emas, balki viloyatning uzoq muddatli taraqqiyoti uchun ham muhim. Tuproq degradatsiyasi, suv tanqisligi, havo ifloslanishi va ijtimoiy tengsizlik o‘zaro bog‘liq muammolar bo‘lib, ularni yerlikdosh yechim topmasdan, viloyatning iqtisodiy salohiyati va demogr afik potensialiŋ kamaytirishi kayin.

Maqolada taklif etilgan institutsional, huquqiy va texnikaviy choralar viloyat hokimlyigiga amaliy yo‘riqnoma bo‘lib xizmat qiladi. Ayni paytda, ushbu choralarni amalga oshirish uchun respublika darajasidagi qo‘llab-quvvalash, xorijiy investitsiyalar jalbi va mahalliy jamoatchilik ishtirokining kombinatsiyasi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyuldagi PQ-245-sonli “Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish va bo‘sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-dekabrdagi PQ-389-son qarori Qashqadaryo viloyatining kompleks hududiy rivojlanish dasturi to‘g‘risida.
3. Qashqadaryo viloyatining statistik boshqarmasi. Viloyat bo‘yicha 2024-yilning iqtisodiy ko‘rsatkichlari // Qarshi: 2025.
4. O‘zbekiston Respublikasi Tuproq Ekspetizasi Markazi. Qashqadaryo viloyatining tuproq-meliorativ holati bo‘yicha axborot. – Toshkent: 2020.
5. Bullard R.D. Dumping in Dixie: Race, Class, and Environmental Quality. – Oxford: Westview Press, 1990.
6. Agyeman J., Bullard R.D., Evans B. (eds.). Just Sustainabilities: Development in an Unequal World. – MIT Press, 2003.
7. Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши. – Т.: "Fan va texnologiya", 2010. – 276 б.
8. United Nations. World Urbanization Prospects. The 2023 Revision. – N.Y.: UN Department of Economic and Social Affairs, Population Division, 2023.

9. Ҳусайнова А.А. Миграциянинг ахлоқий жиҳатлари // Фалсафа ва ҳуқуқ. – 2008. – №4. – Б. 48-49.
10. Lynch K. The Image of the City. – Cambridge, MA: The MIT Press, 1960.
11. Lefevr A. Право на город // Экономическая социология. – 2023. – Т. 24, № 1. – С. 55-71.

